




МУРАДЛИМ

ХЭМ

ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илмий-методикалык журнал № 3/2



Нөкис - 2021

МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРҮҮ



ISSN 2181-7138

№ 3/2 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҰОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестиріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириу
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хэм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гууалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жууан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хэм узликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууанкер.

МАЗМУНЫ

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ТАСВИРИЙ САНЪАТ

Ҳожиёв Р. Б., Норбоева Д.О. Ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш концепциялари	4
Ismatov U.Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini turli grafik materiallarda ishlashga o'rgatish (tempera bo'yog'i misolida)	12
Berdiyorov O. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilar duch keladigan ayrim masalalarning amaliy faoliyatdagi yechimlari	15
Baymetov B.B., Xamroqulova M. Talabalarni boshshaklini tasvirlashga o'rgatishda konstruktiv qurilish qonuniyatlaridan foydalanish texnologiyalari	18
Abduxamidov S.M., Shadiyev A.Ya. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning bugungi kundagi o'rni	22
Ismatov U.Sh. Rangtasvir mashg'ulotlarida maishiy janrning ifodalanishi	25
Марасулова И.М., Зулфиев Р.Н. Ўқувчилар таълим-тарбияси жараёнида тасвирий санъат ўқитувчисининг ўрни	28
Абдуллаева Г.С. Формирование ключевых компетенций у студентов с особыми образовательными потребностями через применение ИКТ	31
Мухитдинова М.С. Нуткида оғир нуқсонли болалар билан коррекцион-ривожлантирувчи ишларни олиб боришда мусика машгулотларининг имкониятлари	35
Султанов Х.Э., Марасулова И.М., Юнусова К.Х. Педагогик инновацион кластери: Чирчиқ тажрибасининг илк натижалари	37
Султанов Х.Э., Махмудов М.Ж. Ўқувчиларни тасвирий санъат фанига қизиқтиришдаги ўқитувчининг маъсулияти	42
Қаюмов Х. А., Қо'қийев В. В. Quruvchi muhandislarni tayyorlashda muhandislik grafikasi ta'limini kompyuter texnologiyasi bilan integratsiyalash	46
Махмудова М.Т. Развитие музыкальной тематики и ее актуальность в изобразительном искусстве Узбекистана	48
Марасулова И. М. Эстетическое воспитание молодежи для общества	52
Sobirov S. T. Bolalar uchun nashrlarda illyustratsiyalarning vazifalari	54
Sobirov S. T. Talabalarda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda to'garaklarning o'rni	59
Муратов Х. Х. Ўқув жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш ва бошқаришнинг долзарблиги	61
Атаханова С.О. Масофали ўқитиш технологиясининг чизмачиликни ўқитишдаги амалий аҳамияти	65
Атаханова С.О. Чизмачилик фани бўйича ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиришда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш омиллари	69
Султанов Х.Э. Таълим муассасалари ҳамкорлигининг кластерли моделини ташкил этиш	73
Қо'қийев В.В. Yordanchi proyeksiyalash usulidan foydalanib yaqqol tasvir qurish	76
Махмудова М.Т. Влияние музыки на изобразительного искусства	81
Махмудова М.Т. Роль и значение музыки в воссоздании изображения	85
Қо'қийев В. В., Mahmudov M. J. Ijodkorlikni rivojlantirish chizama geometriya fani misolida	88
Қо'қийев В. В., Qozoqboyeva D. T. Yordamchi proyeksiyalash usuli orqali yechiladigan masalalar	91

RANGTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA MAISHIY JANRNING IFODALANISHI

Ismatov U.Sh.

*Toshkent viloyati chirchiq davlat pedagogika instituti
«Tasviriy san’at» kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: rangtasvir, tasviriy san’at, maishiy janr, tasavvur, ijod.

Ключевые слова: живопись, изобразительное искусство, бытовой жанр, воображение, творчество.

Key words: painting, fine arts, domestic genre, imagination, creativity.

Rangtasvir san’ati ijodkorning tevarak-atrofdagi kechayotgan voqelikka xos munosabatida yuzaga keladi va insonlarning ma’naviy dunyosini boyitishga, ular qalbida yaratish, yashnatish ishtiyoqini oshiradi. Ijodkorning muvaffaqiyati, ijodiy yaratuvchanlik kayfiyati uning ruhiy holatiga, iste’dodining qadrlanishiga ham bog‘liq. Aslini olganda, rangtasvir o‘zida ichki kayfiyat; ushbu san’at bilan shug‘ullanish istagi esa, kartina haqidagi tiniq tasavvur va konsepsiyani aks ettiradi. Rangtasvir bu tasviriy va masofaviy shakllanuvchi ijod hisoblanadi. Bu jarayon ko‘p vaqtni talab etib, rassomning birinchi nigoh tashlashidanoq boshlanadi.

Rangtasvir hajmli ob’ektlar bilan ishlansada, ularni tekislikda joylashtiradi. Kartina tekisligining ikki o‘lchamliligi rangtasvirda masofani tasvirlashning talablariga qarshi turadi. Aslida kartina tekisligida hamma narsa tekis. Rassom chizgan shakllar va bo‘yoqlarni tomoshabin masofaviy o‘zaro aloqadorlikda ko‘radi. Haqiqatda esa kartinaning oldingi plani ham, orqa plani ham yo‘q, tasvirlanayotgan kartinaning real masofasi kartina tekisligida yotadi. Kartinada faqat shakl va rang mavjud. Agar tasvirlar kartinada naturadagidek real tasvirlangan bo‘lsa, demak, eng ishonchli illyuziya yaratilgandir. Shu bilan birga shuni aytib o‘tish lozimki, turli davrlarda yashab ijod etgan rassomlar kartinadagi tekislik va masofani turlicha talqin etishgan. Buyumlar shakli masofani hosil qiluvchi element hisoblanadi. Kartina tekisligiga ko‘chirilgan atrof-muhit va masofa negativ shakl sifatida belgilanadi.

Dastgohli rangtasvir rassomlarning maxsus asbob-dastgox (molbert) yordamida ishlaydigan suratlaridir. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo‘lmagan o‘lchovda mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga mozaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo‘yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda ko‘pincha moyli va akvarel bo‘yoqlar qo‘llaniladi.

Dastgohli rangtasvir san’ati boy tarixga ega bo‘lib, u insoniyatning estetik dunyoqarashi shakllanishi va rivojlanishida san’atning boshqa turlari qatorida juda muhim o‘rin tutadi. Dastgohli rangtasvirda yaratilgan asarlar qaysi janrda ifodalanmasin, tomoshabinni o‘ziga jalb qilgan holda, inson ruhiyatiga kirib boradi. U xox portret, natyurmort yoki manzara va maishiy janrda bo‘lmasin, kishilarga zavq hissini bag‘ishlaydi. Ayniqsa, maishiy janrda yaratilgan kartinalar o‘zida davr ruhi, kundalik turmush tarzi va davrning muhim voqealarini aks ettirganligi bilan tomoshabinda o‘zgacha taassurot uyg‘otadi.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda dastgohli rangtasvir san’ati juda qisqa vaqtda rivojlanib katta yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston rangtasvir san’ati zafarli yo‘lni bosib o‘tdi. Respublikamiz rassomlari ko‘pgina ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, san’atimiz ta’sirchanligini ortib borayotganini namoyish etdilar. Qolaversa, rassomlarimiz bugungi kungacha ko‘pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar.

Rassomlik san’atining o‘ziga xos xususiyatlariga ega janrlaridan biri maishiy janr tasviriy

san'atning kundalik ijtimoiy va shaxsiy hayotni, maishiy turmushni aks ettiradigan janridir. Turmushda ko'zga tashlanadigan o'zaro munosabatlar va hatti-harakatlarni, uning ichki mohiyati va ijtimoiy tarixiy mazmunini chuqur ochib berish kabi xususiyatlarga ega. Ushbu janr demokratik va realistik badiiy an'analarning o'sishi, rassomlarning xalq hayoti va mehnat faoliyatini atroflicha tasvirlashga qiziqishining ortishi bilan bog'liq holda rivojlandi. Maishiy janrda rangtasvir (kartina) yetakchi o'rin tutadi, grafik, kichik hajmdagi haykaltaroshlikda ham maishiy mavzu keng tarqalgan.

Maishiy lavhalar ibtidoiy san'at (ov manzaralari, urf-odatlar tasvirlari), Sharq (devoriy rasmlar va releflar) va Yunon (vazalar bezagi) san'atida ko'p uchraydi, ellinizm san'atida muhim o'rin egallagan. Dastlabki namunalari qadimgi Sharq (Xitoy, keyinroq Koreya, Yaponiya)da yaratildi. Uyg'onish davrida maishiy janr real voqealar, maishiy detallar bilan boyitildi. O'rta asrlarda Yevropa va Osiyoda devoriy rasmlar, bo'rtma naqshlar, miniatyurada keng tarqaldi, Sharkda va Yevropada san'atning maxsus janri sifatida namoyon bo'ldi.

Maishiy janrda XVII-asrdan maishiy hayot ijtimoiy mazmunga ega bo'ldi, hajviy, ijtimoiy tanqidiy yo'nalish yuzaga keldi; emotsional nafislik, psixologik noziklik va o'tkir xayotiy kuzatishlar o'z aksini topdi. Jahon rassomlari Jotto, Rembrandt, U. Xogart, A. Vatto, F. Goyya, P. P. Rubens, V. G. Perov, I. Ye. Repin, V. Ye. Makovskiy, A. A. Deyneka kabilarning maishiy janrdagi yetuk san'at asarlari mashhur.

O'zbekiston hududida esa mazkur janr devoriy rasmlarda va miniatyuralarda o'z ifodasini topgan. XX-asr rassomlaridan B.Hamdamiy, L.Abdullaev, 3.Inog'omov, M.Saidovlar, amaliy san'at ustalaridan A.Muhtorov, Sh.Mo'minova maishiy mavzuda asarlar yaratdilar.

O'zbekiston rassomlari ijodining bu davrlariga oid eng yaxshi namunalari o'ziga xos uslub, ifodali obrazlar, yuksak professional madaniyat kabi fazilatlariga ega. Bu asarlar uslub va tematik jihatdan bir-biriga o'xshamasa ham, g'oyaviy umumiylik zamonaviy voqelikni diqqat bilan aks ettirishi, o'zbek kishilarining ichki dunyosi, mehnatga munosabati va hayot kechirmalarini chuqur tasvirlanishi bilan hamoxangdir.

Bugungi kunda ham rassomlar halq hayoti va atrofida sodir bo'layotgan voqelikni tasvirlar ekan, undagi xarir parda ortidagi manzarani ifodalashga intiladi.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanishish va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va xodisalarni kishilarning tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar.

Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishidir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Eng muhimi san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, Shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotsional ta'sir ko'rsatish kuchiga ham egadir.

Maishiy janrlardagi tasvirlar rassom hayotiy kechinmalari orqali yaratilib, u tasavvuridagi yoki real hayotdagi voqeani dastgohli rangtasvirda, ya'ni, falsafiy ma'nodagi "deraza ortidagi hayot"ni polotnoga muxrlashga xarakat qiladi. Ko'rinarli to'siq vazifasini bajaruvchi derazaning ikkinchi tomonida ro'y berayotgan manzara har bir insonni qiziqitirishi tabiiy, albatta. Lekin rassom ushbu manzarani ifodalar ekan, u tomoshabinga inson turmush tarzidagi hayotning qay darajada quvonchli yo qayg'uli ekanligini ranglar uyg'unligi va falsafona tasvirlanishi orqali yetkazadi. Qolaversa, unda real yoki hayoliy tabiat ko'rinishlari orqali rassomning xis-tuyg'ulari, o'y xayollari, orzu-istaklari o'z ifodasini topadi.



U.Sh.Ismatov- “Deraza ortidagi hayot” 2016 y. 110x145 m.m.

Maishiy turmushning dastgohli rangtasvirda ifodalanishi rassomni beixtiyor o‘ziga jalb etadi. Kartinada yaratiladigan kompozitsiya tomoshabinni chuqur o‘yga solishi bilan birga uni tasvirdagi xayotga olib kiradi. Inson tasviriy xayotni kuzatish mobaynida unda aks etgan ranglar bilan yashaydi, his qiladi. Rangtasvirda ranglar va hissiyotlar eng oliy darajadagi omil hisoblanadi. Uning har bir ijodkorda turli tarzda o‘z ifodasini topishi chek-chegarasiz ekanligining yorqin isbotidir.

Har bir o‘zbek rassomi o‘z asarida o‘zbek xonadonini go‘zal shakl-shamoilda ko‘rsatib, o‘y-kechinmalarini tabiat bilan bog‘liq holda tasvir etib, asar xayotiyligini oshirishga xarakat qiladi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o‘tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo‘lib qolmay, balki o‘zida inson aql-zakovati, hayot to‘g‘risidagi fikr-o‘ylarini aks ettiruvchi ko‘zgu hamdir.

Xulosa sifatida shuni deymanki, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan mohir rassomlar asarlari biz kabi tahsil olayotgan yoshlar, mustaqil ijodga qadam qo‘yayotgan yosh san’atkorlar uchun katta maktab vazifasini o‘taydi. Bugungi kunda yosh rassomlarimizning ko‘rgazmalarga qo‘yilayotgan turli janrdagi asarlarining barchasi ham badiiy jihatdan mukammal emas. Dastgohli rangtasvirda maishiy janrdagi asarlar tobora kamayib bormokda. Turmush tarzi, tasavvur va real xayotda sodir bo‘layotgan voqealarni o‘zida aks ettirgan asarlar deyarli yaratilmayapti. Asarlarimizda davr ruhi, hayot go‘zalligini aks ettirishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. N. Abdullaev. San'at tarixi. "San'at". T., 2001.
2. Ismatov Ulfat Shuhratovich. Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study ISSN: 2708-9703 Vol. 1 No. 2, 2020 (page 001-004)
3. Shuhratovich, I. U. (2020). Application of innovation in teaching process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (5), Part II, 4-8.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 1991.
5. Ismatov Ulfat Shuhratovich and Sabirov Sarvar Tursunmurotovich. Development of Creative Competence in Teaching Future Teachers of Fine Arts to Work in Graphic Materials. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192

РЕЗЮМЕ

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at tur va janrlari, ya'ni maishiy janrning rivojlanish tarixi, tasviriy san'atdagi ahamiyat haqida chuqurroq bilim olishga, shu janrda ijod qilgan rassomlar haqida ma'lumot berib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

Будущим учителям изобразительного искусства будут предоставлены глубокие знания о типах и жанрах изобразительного искусства, то есть истории развития домашнего жанра, важности изобразительного искусства и художников, которые творили в этом жанре.

SUMMARY

Prospective teachers of fine arts were provided with information about the types and genres of fine arts, ie the history of the development of the domestic genre, the importance of fine arts, the artists who created in this genre.

ЎҚУВЧИЛАР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯСИ ЖАРАЁНИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ЎРНИ

Марасулова И.М.

ЧДПИ "Тасвирий санъат" кафедраси катта ўқитувчиси

Зулфиев Р.Н.

ЧДПИ тасвирий ва амалий безак санъати йўналиши 1-курс магистранти

Таянч сўзлар: педагогика, сифатли таълим, тасвирий санъат, ижодий қобилият, касбий маъсулият, фидойилик, ташаббускорлик.

Ключевые слова: педагогика, качественное образование, изобразительное искусство, творческие способности, профессиональная ответственность, целеустремленность, инициативность.

Key words: pedagogy, quality education, fine arts, creativity, professional responsibility, dedication, initiative.

Жамиятимиз ривожланишининг чуқур иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар рўй бераётган ҳозирги босқичида ўқувчиларга таълим-тарбия бериш сифатини ошириш йўллари ва воситаларини излаб топиш замонавий педагогиканинг асосий долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Бу масалага кейинги йилларда ҳукуматимиз томонидан катта эътибор берилиб, узлуксиз таълим тизимида туб ислохотлар амалга оширилмоқда. Мазкур жараёнлар моҳиятан педагогик таълим тизими кадрлар тайёрлаш имкониятларининг тубдан яшиланишига, жамиятни оғишмай ривожлантириш негизида умумжаҳон таълим муҳитига мос тарзда узлуксиз педагогик таълим тизимини яратишга олиб келади.

Яқинда таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси ишчи гуруҳи таълим сифатини ошириш бўйича амалга оширилаётган ишларнинг самарадорлик

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан
филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 3-2**
Нөкис — 2021

Басып шығыуға жууапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Оригинал-макеттен басыуға рухсат етилди 12.03.2021. Форматы 60x84^{1/16}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шэрти б.т. Нашр. т. Нусқасы 2000. Буйыртпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.

Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро, 51

